

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

O'ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

O'ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI
fanidan

“O'ZBEK TILIDA LUG'AVIY-SINTAKTIK SHAKLLAR”
mavzusida yozilgan

KURS ISHI

Bajardi: Hayrullayeva D.
Ilmiy rahbar: dots.B.Bahriddinova

Qarshi – 2015

MUNDARIJA

Kirish

1-§. O‘zbek tili grammatik shakllarining o‘rganilish tarixi

2-§. Grammatik shakllarning milliy talqini va unda lug‘aviy-sintaktik shakllarning o‘rni

3-§. Lug‘aviy-sintaktik shakllar va so‘z birikmalarini ajratish muammolari

4-§. Ravishdosh shaklining lug‘aviy-sintaktik shakllik tabiati

5-§. Sifatdosh shaklining lug‘aviy-sintaktik shakllik tabiati

6-§. Harakat nomi shaklining lug‘aviy-sintaktik shakllik tabiati

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

KIRISH

Dunyodagi fanlarning eng qadimiylaridan bo`lmish tilshunoslik necha o`n asrlardiki, til deyiladigan tilsimning tabiatini, tub mohiyatini tushunish va tushuntirish yo`lida tinimsiz izlanadi. Shu bois keyingi yillarda lug`aviy-sintaktik shakllarning sintaktik imkoniyatlari o`zbek tili materiallari asosida yangicha tadqiq etish va tahlil qilishga qaratilgan izlanishlar silsilasi yuzaga keldi. Bu izlanishlarning salmog`i kundan-kunga oshib bormoqda.

O`zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida shakllangandan beri ilmfan, milliy madaniyatimizning har bir sohasida, ta`lim-tarbiya tizimida jiddiy o`zgarishlar ro`y berdi. “Istiqlol yillarida o`zbek tilining qo`llanish doirasi amalda nihoyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o`ziga xos xususiyatlariga bag`ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o`quv qo`llanmalari, yangi-yangi lug`atlar ko`plab chop etilayotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o`z hissasini qo`shmoqda”¹, - deya ta`kidlagan edi Prezidentimiz Islom Karimov. Aytishimiz kerakki, o`zbek tilshunosligi fani oldida hali hal etilishi lozim bo`lgan muammolar juda ko`p. Masalan, morfologik qo`shimchalar tasnifi va ularning sintaktik imkoniyatlari tilshunoslik, jumladan, o`rta va oliy ta`lim grammatik tizimining muhim tushunchalaridan biri bo`lganligi sababli hamma davrning dolzarb mavzusi bo`lib kelgan. O`tgan vaqt mobaynida o`zbek tili morfologik ko`rsatkichlarining tasnifi yaratildi, ammo xulosalar avvaliga arab, keyinchalik rus tili grammatik me`yorlariga asoslangan holda berib kelindi. Istiqlol sharofati bilan, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning amaldagi tadbiri asosida uzluksiz ta`limda “Hozirgi o`zbek adabiy tili”ning barcha sohalarida izlanishlar olib borilmoqda. Endilikda tilshunoslarimiz tomonidan o`zbek tilining agglutinatib tabiati chuqur o`rganilib, shunga tayanilgan holda so`z qo`shimchalarining yangi tasnifi yaratildi. Ya`ni, grammatik shakllarni asosiy xususiyatiga ko`ra uchga ajratilib o`rganish tavsiya etildi: a) lug`aviy shakl hosil qiluvchi; b) sintaktik shakl hosil qiluvchi; d) lug`aviy-sintaktik shakl hosil qiluvchi. Shulardan lug`aviy shakl hosil qiluvchi va sintaktik shakl hosil qiluvchilar

¹ Karimov I.A. “Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch”. T.: Ma`naviyat. 2008. 86-bet.

tadqiqotchilar tomonidan o'z ilmiy isbotini topgan. Ammo lug'aviy-sintaktik shakllar va "Oraliq uchinchi" maqomiga ega o'zgalovchi kategoriyasining sintaktik imkoniyatlari hamon munozarali mavzu sifatida qolmoqda. Uzluksiz ta'limda grammatik shakllar va so'z birikmalarini o'qitishda ayrim muammolar ko'zga tashlanmoqda. Shuningdek, so'z birikmalarining grammatik tuzilishiga ko'ra tasnifida ham chalkashliklar mavjud. Shunday ekan, mazkur masalani tadqiq etish zarurati va mavjud imkoniyat malakaviy-bitiruv ishining shakllanishi uchun yetarlicha asos bo'la oladi.

Ma'lumki, o'zbek tili qurilishiga doir tadqiqot, darslik va o'quv qo'llanmalarida tilning sistemaviy xarakteri haqida ko'plab fikr-mulohazalar bildirilgan, sintaktik sathning asosiy birliklaridan biri sifatida so'zlarning erkin bog'lanish omillari va ularni hosil qilishda bevosita ishtirok etuvchi lug'aviy-sintaktik shakllar turli ilmiy qarashlar va yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. Fanimizda "Oraliq uchinchi" qonuniyati tadqiqi bilan bog'liq ma'lumotlar qimmatli manba sifatida qaraladi. O'zbek tilshunosligida G'.Abdurahmonov, M.Asqarova, Sh.Rahmatullayev, B.Mengliyev, B.Bahriddinova va S.Nazarova kabi tilshunos olimlar yaratgan darslik, o'quv qo'llanma va ilmiy asarlarda lug'aviy-sintaktik shakllar hamda so'z birikmalarini ajratish tahlili natijasida to'plangan ilk ilmiy dalillar yaratilgan. Lug'aviy-sintaktik shakllar borasidagi ilmiy izlanishlar morfologik sath doirasida taqdim etilgan bo'lsa-da, lekin uning sintaktik imkoniyatlari tadqiq qilinmagan va bu o'z ilmiy isbotini kutayotgan dolzarb muammolardan biridir.

1-§. O`zbek tili grammatik shakllarining o`rganilish tarixi

Tilshunosligimizda grammatik shaklning grammatik ma'nosi bilan bog'liq masalalar kam o`rganilgan mavzulardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, grammatik shakl deganda grammatik ma'no ifodalovchi morfologik ko`rsatkich tushuniladi. Boshqa birliklar kabi grammatik shakl uch tomon – shakl, ma'no va vazifaning yaxlitligidan iborat. Grammatik shakl va uning tasnifi har doim dolzarb bo`lib kelgan. O`tgan davr mobaynida o`zbek tili grammatik ko`rsatkichlarining tasnifi yaratildi, ammo qoidalar avval arab, so`ngra rus tili grammatik me'yorlariga tayanilgan holda taqdim etilgan edi. O`zbek substansial tilshunosligi ona tilimizning agglutinativlik xususiyatiga muvofiq ravishda grammatik ko`rsatkichlarning yangicha tasnifini taqdim etishdi. Bunga ko`ra:

1. lug'aviy shakl hosil qiluvchi;
2. sintaktik shakl hosil qiluvchi;
3. lug'aviy-sintaktik shakl hosil qiluvchi ko`rsatkichlar farqlandi¹.

Lug'aviy shakl hosil qiluvchi qo`shimchalarning so`z ma'nosini qisman o`zgartiruvchi, muayyanlashtiruvchilik xususiyatiga egaligi, shuningdek, sintaktik shakl hosil qiluvchilarning so`z lug'aviy ma'nosiga ta'sir etmay, so`zlarni bir-biriga bog'lashga yoki ularga ma'lum bir sintaktik vazifa berishga xizmat qilishi barchamizga ma'lum. Biroq o`zbek tilida shunday shakllar borki, ular bir tomondan so`zning lug'aviy ma'nosiga ta'sir etadi, ikkinchi tomondan, ularni sintaktik aloqaga kiritadi. Shunga muvofiq ravishda fe'lning o`zgalovchi kategoriyasi shakllarining ikkiyoqlama mohiyatga egaligi isbotlandi. Masalan, *qiziqib so`ramoq* birikmasida (-*ib*) ravishdosh shakli (*qiziq*) so`zining lug'aviy ma'nosiga yaqin ma'no bergan, shu bilan birgalikda, bu so`zni keyingi so`zga bog'lash vazifasini ham bajarmoqda. Shuning uchun o`zgalovchi kategoriyasi shakllari lug'aviy shakl hosil qiluvchilar va sintaktik shakl hosil qiluvchilar orasida

¹ Bahriiddinova B. Hozirgi zamon o`zbek tili(Qo`shimchalar tasnifi yuzasidan materiallar).Qarshi.:Nasaf. 2004.19-bet.

oraliq vaziyatni egallab, *lug'aviy-sintaktik shakl hosil qiluvchi* atamasi bilan nomlanadi.

Tilshunoslik, xususan, o'zbek tilshunosligi hozirgi darajaga yetguncha uzoq tarixiy rivojlanishni bosib o'tdi. Tilshunoslik fani bosib o'tgan uzoq o'tmishga nazar tashlasak, o'zbek tili taraqqiyoti va takomillashuvining olis moziyga borib taqalishiga guvoh bo'lamiz. Shu davr mobaynida boshqa sohalar singari o'zbek tilshunosligining barcha tarmoqlarida ilmiy izlanishlar olib borildi va fandagi yangiliklar hayotda tadbiq etilmoqda.

Morfologik ko'rsatkichlar masalasi tilshunoslik fanining azaliy muammolaridan hisoblanadi. Jahon tilshunosligida qator grammatik shakllar tasnifida uzoq davrlardan hozirga qadar munozara davom etib kelayotganligi fikrimizning dalilidir. Tilshunoslik tarixiga e'tibor bersak, grammatik shakl tushunchasi xususida turli xil yondashuvlar kuzatiladi. Bu xilma-xillikning ta'sirini bugungi grammatikaga doir tadqiqotlardan ham payqash qiyin emas. Xususan, u "grammatik kategoriyaning tashqi lisoniy vositalar bilan ifodalanishi", "ayrim grammatik ma'noni ifodalovchi formal belgi", "ma'lum grammatik ma'no ifodalovchi shakl" sifatida tavsiflanadi. Ammo grammatik shakl atamasi deyarli barcha tilshunoslar tomonidan so'z shakliga nisbatan qo'llaniladi.

Grammatik shakllarning qator tilshunoslik maktablarida o'rganilish tarixi mavjud, hamda ushbu mavzu yuzasidan o'zbek tilshunoslari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda ham mazkur maktablarning qimmatli ma'lumotlariga tayaniladi. Xususan, grammatik shakllar to'g'risidagi nazariy qarashlar ilk bor Vedalar tilini tadqiq qilgan hind olimlari tomonidan e'tirof etiladi. Ular so'zlarni tahlil qilish va tarkibini o'rganish jarayonida so'z tarkibini quyidagi bo'laklarga bo'lganlar:

- 1) o'zak;
- 2) suffiks;
- 3) qo'shimcha (turlovchi va tuslovchi)¹.

¹ Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. O'quv qo'llanma – T.: O'qituvchi. 1972. 22-bet.

Qadimgi hindlar turlovchi va tuslovchilarning soʻz oʻzgartiruvchi grammatik shakllar ekanligini aniqlaganlar, ammo mazkur shakllarni muayyan nomlar ostida birlashtirmasdan ular oʻrtasidagi farqni faqatgina raqamlar bilan ajratganlar. Sanskrit tili tadqiqotchisi, “Ashtadxyan” asari muallifi Panini ham ushbu nazariyani eʼtirof etgan. Yunon olimi Dionisiy va uning zamondoshlari ham soʻz turkumlarini tasniflash chogʻida aynan sintaktik vazifa bajaruvchi qoʻshimchalarga tayanadi. Uning taʼrificha: ot (sifat ham) kelishik va songa koʻra oʻzgaruvchi turkumdir. Feʼl kelishiksiz soʻz turkumidir. Sifatdosh esa feʼl va otlarga xos boʻlgan birliklarni birlashtiruvchi kategoriya hisoblanadi¹. Qadimgi hind va yunon tilshunosligi nazariy maʼlumotlariga tayangan Yevropa tilshunoslari ilmiy tadqiqotlarida ham grammatik shakllar tasnifi uchun alohida boblar ajratiladi.

Oʻzbek tili morfologik tizimi va sintaktik imkoniyatini oʻrganish Yevropa tilshunosligi mezonlari asosida talqin va tavsif etildi. Soʻz shakli tushunchasi oʻzbek tilshunosligiga XIX asrning 2-yarmidan boshlab kirib kela boshladi. Bunda Yevropa tilshunosligi va oʻzbek tili boʻyicha yevropaliklar tomonidan yaratilgan darsliklar turtki boʻldi. Shuningdek, turkiyzabon tadqiqotchilarimizning arab tilshunosligiga tayangan holda olib borgan izlanishlari ham oʻzbek tili grammatikasida ushbu tushunchaning shakllanishiga sabab boʻldi. Chunki mazkur masala sharq olimlari tomonidan qadimdan tadqiq etib kelingan.

Turkiy tillar, xususan, oʻzbek tili morfologik vositalarini nomlash, tasniflashga intilishning dastlabki ildizlari X-XI asrlarga borib taqaladi. Bu ish bilan, yaʼni turkiy tillarnig fonetik, grammatik va leksik tahlili bilan ilk bor shugʻullangan kishi – Oʻrta Osiyo xalqlari orasida yetishib chiqqan yirik adabiyotshunos, tarixchi, geograf va etnograf, shuningdek, oʻz taʼbiri bilan aytganda «...tilda ularning eng yetuklaridan, eng katta mutaxassislaridan, xushfahmlaridan, eski qabilalaridan, usta nayzadorlaridan» [DLT.,I.-44] boʻlgan qomusiy olim Mahmud Qoshgʻariydir. U turkiy urugʻ va qabila tillarini, ularda qoʻllangan soʻzlarning leksik va grammatik xususiyatlarini chuqur oʻrganish

¹ Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. Oʻquv qoʻllanma – T.: Oʻqituvchi. 1972. 24-bet.

asosida ikki yirik asar «Devonu lug‘otit turk» va «Javohir un nahv fi lug‘atit turk»larni yaratdi.

Turkiy tillarning so‘z yasash, so‘z o‘zgartirish va shakl yasash imkoniyatlari haqidagi ilk nazariy qarashlar ham arab olimlari tomonidan beriladi. Xususan, Abu Hayyon al – Andalusiyning 1312-yilda yaratilgan “Turklar tilini tushunish” nomli asarida morfologiya va sintaksisning so‘z birikmasi ta’limotiga alohida e’tibor qaratiladi. Grammatika va mantiqni bir-biriga bog‘lab o‘rgangan turkiyzabon qomusiy olim Abu Nasr Forobiyning “Fanlar tasnifi haqidagi so‘z” asarida so‘z birikmalarini so‘zlarni bog‘lovchi shakllar asosida tahlil qiladi. Shunga muvofiq so‘z birikmasi qonunlari haqidagi fan - bobni ikki qismga bo‘ladi:

- 1) ot va fe’llarning “oxiri” (qo‘shimchalari) qoidasi;
- 2) so‘z qo‘shimchalarining qo‘shilish qoidalari¹.

So‘z oldiga qo‘shiladiganlar, so‘z oxiriga qo‘shiladiganlar. O‘zgaradigan (turlanuvchi ot va tuslanuvchi fe‘l) va o‘zgarmaydigan so‘zlarga bo‘lish. “Harf” deb qaralgan qo‘shimchalar va yuklamalar o‘zgarmaydigan so‘zlar sifatida qaraladi².

Abu Hayyon yaratgan “Kitobul idrok lil-lisonil atrok” nomli asari ta’sirida XIV-XV asrda yozilgan muallifi noma’lum “At – tuhfatus zakiyati fillug‘atit turkiya” asarida o‘zbek tili morfologik va sintaktik xususiyatining ilk tizimli bayoni beriladi. Har ikkala asar muallifi o‘z talqinida arab tilshunosligi grammatik an’alariga tayanadi. Lekin arab tilshunosligi ichki fleksiyaga ega arab tili qoidalari asosida ish tutganligi sababli, bu asosda turkiy tillarning agglutinatив tabiatini to‘g‘ri baholab bo‘lmas va ilmiy manba sifatida uzoq yillar foydalanilgan darsliklarda so‘zning asosiga qo‘shilib keluvchi qo‘shimchalar arab tili yuklamalariga o‘xshash bo‘lganligi uchun “harflar” deb baholanar edi. Abu Hayyon va “At tuhfa” asari muallifi turkiy tilning agglutinatивlik xususiyatini – so‘z shakli yasash jarayonida o‘zak-negizning o‘zgarmasligini anglaganlar va o‘z tavsiflarida uni ochib berishga intilganlar. Ular o‘z davri turkiy tili so‘z o‘zgartirish

¹ Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi.- T.: O‘zbekiston. 2002.11-bet.

² Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi.- T.: O‘zbekiston. 2002.11-12-betlar.

tizimi uchun xos boʻlgan deyarli barcha shaklning – ot va olmoshda koʻplik va kelishik, egalik shakli, feʼl nisbati, harakat nomi bilan sifatdosh, boʻlishli/boʻlishsizlik shakli, mayli, zamoni hamda tuslanishi tavsifini, har birining arab tilidagi muqobilini sinchiklab yoritganlar.

Alisher Navoiyning lisoniy qarashlari, asosan, “Muhokamatul lugʻatayn” (1499) asarida oʻz ifodasini topgan. Ikki til – oʻzbek va fors tillarning solishtirma tahliliga bagʻishlangan ushbu asarda soʻz yasashga asos, yasovchi vosita va yasalma tushunchalari haqida qisqacha maʼlumot beriladi. Alisher Navoiy ikki til bahsini grammatik sathda olib borganligi tufayli, bugungi kunda soʻz yasalishi, shakl yasalishi atamalari bilan farqlanuvchi yasalishlarni bir-biridan ajratmaydi. Lekin ravishdoshning *-gach* shakli (*tegach, aytgach, yorgʻoch, topqoch, sotqoch*) ning feʼlga qoʻshilib, uning maʼnosiga “surʼat yoʻsunluk” bir maʼno yuklashini taʼkidlaydi. Shuningdek, feʼlning orttirma nisbati shakli haqida ham aytib oʻtadi va bu nisbat maʼnosi *-t* qoʻshimchasi orqali ifodalanishini qayd etadi. Masalan, *yugurt, yashurt, chiqart* .

Oʻrta asr tilshunoslaridan biri, “Sangloh” asari muallifi Mirzo Mehdixon ham turkiy qoʻshimchalarga “harflar” sifatida qaraydi va 6 mabna (qism)dan iborat Tarsif (grammatika)ning 4-qismi “harf” atamasi ostida qoʻshimchalar roʻyxati va ularning tavsifiga bagʻishlanadi. Ushbu qismda bir soʻzning turli shakllarini alohida tasniflaydi.

Yevropada tilshunoslik chinakam fan sifatida XIX asr boshlarida shakllana borib, bu davrda turli lingvistik qarashlar olimlar tomonidan eʼtirof etila boshlandi. Ayni vaqtda ilmiy-nazariy fikrlar, asosan, til va uning tarixiy taraqqiyoti bilan bogʻliq fikrlar jamlanmasi edi. Bu davrda tarkibi tekshirilgan tillar qiyosiy-tarixiy jihatdan tadqiq etildi. Agglutinatsiya nazariyasini yaratgan (garchi keyinchalik anchayin oʻzgartirilgan, takomillashtirilgan boʻlsa-da) F.Bob muloqotdagi nemis tilini qadimgi grek, lotin, slavyan, zend (qadimgi avesto tili) bilan qiyoslash jarayonida tillarning grammatik shakliga eʼtibor beradi. Yaʼni, uning nazaricha, barcha turlovchi va tuslovchi qoʻshimchalar ilgari mustaqil qoʻllangan oʻzak boʻlgan. Keyinchalik tarixiy taraqqiyot natijasida ular affiks holatiga kelgan va

hatto fe'llardagi shaxs-son qo'shimchalari ham olmosh o`zaklaridan kelib chiqqan¹.

Qiyosiy tilshunoslik oqimi vakillaridan yana biri, agglutinatив belgili tillarni o`simlikka o`xshatgan olim Avgust Shleyxer o`zining biologik (naturalistik) konsepsiyasiga tayangan holda bildirgan fikrlarida so`zning shakliy (grammatik) xususiyatlariga alohida ahamiyat qaratadi. U so`z strukturasi tiplarini aniqlash maqsadida so`z formalari haqidagi ta'limotni yaratdi hamda uni bungacha faqat tabiatshunoslar qo'llab kelgan **“morfologiya”** atamasi bilan nomladi. Shuningdek, A.Shleyxer turkiy tillarni agglutinatив oilaning sintetik tipi sifatida talqin etadi.

Rus olimi A.A.Shaxmatov, boshqa olimlardan farqli ravishda, morfologiyani faqatgina so`z turkumlari haqidagi ta'limot deb tushunmay, balki o`zgaradigan so`zlar (fe'l, ot, sifat, son, olmosh)ning grammatik formalari haqidagi tilshunoslik sohasi sifatida talqin qiladi. U so`z shakllarini o`zgaradigan so`zlardagina mavjud deb biladi. A.A.Shaxmatov grammatik shaklga quyidagicha ta'rif beradi: “So`zning formal (boshqa so`zlar bilan aloqasidagina bilinadigan) ma'nolariga ko`ra farqlanadigan turli ko`rinishlari grammatik forma deyiladi”². Olim tilni o`rganish sintaksisga asoslanib olib borilishi kerak degan fikrda edi. Qizig'i shundaki, A.A.Shaxmatov so`z o`zgartirish hodisasidan farq qiladigan sifat darajalari, sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi, nisbat shakllarining yasalishini ham grammatik formaga kiritadi.

So`z shakllari va ularning paradigmalarini ajratish N.Ostroumov, G.Vamberi, L.V.Shcherba va boshqa rus tadqiqotchilarining ilmiy izlanishlaridan boshlanadi. Yani, so`z shakllari o`zaro bog'lanishlari jihatidan ikkiga ajratildi:

- 1) paradigma hosil qiladigan shakllar;
- 2) paradigma hosil qilmaydigan shakllar;

Ushbu bo`linishga ko`ra paradigma hosil qiladigan shakllar sirasiga ot va otlashgan so`zlardagi grammatik son (birlik, ko`plik), kelishiklar, egalik shakllari va fe'llardagi bo`lishli/bo`lishsizlik hamda shaxs-son formalari kiritiladi.

¹ Usmonov.S. Umumiy tilshunoslik. O`quv qo`llanma – T.: O`qituvchi. 1972. 60-bet.

² Usmonov.S. Umumiy tilshunoslik. O`quv qo`llanma – T.: O`qituvchi. 1972. 89-bet.

Pradigma hosil qilmaydigan shakllar tarkibida esa hozirda lug'aviy shakl hosil qiluvchi nomi ostida birlashtirilgan otlardagi kichraytirish-erkalash, sifatlardagi daraja, fe'llardagi nisbat va vazifa shakllari hamda shu kabi boshqa shakllar o'rganildi. Akademik L.V.Shcherba morfologiya sohasida, so'z turkumlari, so'z shakllari masalalarida o'z davri uchun yangilik bo'lgan fikrlar bilan chiqdi. U barcha so'z shakllari so'z birikmalarining normal holda, nutq vaziyatida, shu vaqtning aniq sharoitida yaratiladi¹, deya ta'kidlaydi. L.V.Shcherba fikrlarini rivojlantirgan Y.D.Polivanovning nazariy qarashlari, xususan, grammatika sohasida hammadan oldin uning morfema haqidagi fikrlari diqqatni o'ziga tortadi. U morfemani ikki turga – leksik (o'zak) va formal (grammatik) kabi turlarga ajratadi. Shakl yasash masalasiga to'xtalganida, u so'z yasash va so'z o'zgartirish orasida turuvchi “ichki tartibdagi shakl yasash” hodisasi borligini ko'rsatadi. Shuningdek, Y.D.Polivanov agglutinativ tillarni tuzilish jihatidan, boshqa tilshunoslardan farqli ravishda, analitik tipga kiritdi. Chunki u tillarning sintetik yoki analitik bo'lishini aniqlashda, odatdagidek, grammatik ma'noning, so'zning (so'z shaklining) o'z ichida qo'shimchalar (sintetik) yoki yordamchi so'z bilan (analitik) ifodalanishidan emas, har bir grammatik ma'noning alohida bitta qo'shimcha orqali ifodalanishi yoki bitta qo'shimchaning bir necha grammatik ma'noni ifodalashidan kelib chiqadi.

Ma'lumki, qo'shimchalar o'zi yakka holda qo'llanmaydigan, so'z yasash yoki forma yasash asosi bilan birikib turli ma'nolar (so'z yasalish ma'nosi, grammatik ma'no)ni hosil qiladigan yordamchi morfemalardir. Ular ana shu mavqeyiga ko'ra, **ko'makchi morfema, ergash morfema, affiks morfema** tarzida nomlanib kelinmoqda. Ushbu mavzu yuzasidan ilk qarashlar o'zbek tilshunosligida XX asr boshlarida paydo bo'lib, 20-yillarda qo'shimchalar “**belgilar**” deb atalgan va uch guruhga ajratib o'rganilgan:

1) ayiruv belgilari: *-da, -ga, bilan, uchun; be-, -siz, -ma, -mi?, -ay, -dosh* va h.k;

2) turlov belgilari: *- di, -ib, -gach, -g'ali, -g'ay, -ing, - roq* va b;

¹ Usmonov.S. Umumiy tilshunoslik. – T.: O'qituvchi.1972. 149-bet.

3) yasov belgilari: - *la*, -*mak*, -*m*, -*ag'on*, -*tir*, -*ma*¹;

Yuqoridagi tasnifda qo`shimcha bilan yuklama va ko`makchilar umumiy vazifa asosida bir guruhga kiritilgan. Turlovchi va so`z yasovchilar o`zaro farqlanmagan, shuningdek, ularning mohiyati nazarda tutilmagan.

A.Fitratning “Sarf” va “Nahv” darsliklaridan keyin “so`z shakli” tushunchasi o`zbek tilshunosligida ommalasha boshladi. Bu davrda so`z shakli deganda asosga qo`shilib kelgan har qanday qo`shimcha tushunilib, *kitoblar* ham, *kitobcha* ham, *yozdik* ham, *yozdi* ham so`zning shakli deb talqin qilinardi. Garchi tugal bo`lmasada, Fitratning mazkur asarlari o`zbek tilshunosligida morfologiyaning ilk tavsifi sifatida tarixiy ahamiyatini yo`qotmaydi, chunki u keyingi davrda – 1943-yilgacha bo`lgan boshqa darsliklarda berilgan nazariy talqinlar uchun qimmatli manba vazifasini bajargan.

40-yillarda S.Barxudarov darsligi namunasi asosida yangi turdagi o`zbek tili darsliklari yaratila boshlangach, tilshunosligimizga F.F.Fortunatov asos solgan Moskva lingvistik maktabining **forma yasash, so`z o`zgartirish, forma yasovchi qo`shimchalar, so`z o`zgartiruvchi qo`shimchalar** va **negiz** atamaları kirib kela boshladi. F.F.Fortunatovning o`zi so`z shakllari haqida ikki xil fikr bildiradi:

- 1) so`zlarning negiz va affikslarga bo`linish qobiliyati formadir;
- 2) so`zlarning affikslarga ko`ra farqlanishi formadir².

Shu asosda 50-yillargacha qo`shimchalar ikki turga – so`z yasovchilar va so`z o`zgartiruvchilarga ajratilgan. Jumladan, O.Usmon, B.Avizovlarning “O`zbek tili grammatikasi” nomli 1941-yilda nashr etilgan kitobida qo`shimchalar “**suffikslar**” nomi bilan yuritilib “**yasovchi suffikslar**” va “**turlovchi suffikslar**” deb ikkiga bo`linadi. Shu kitobda turlovchi suffikslarga quyidagicha ta`rif va misollar keltiriladi:

So`zlarning bir-biri bilan bog`lanishini, o`zaro aloqasini ko`rsatadigan suffikslar so`z turlovchi suffiks deyiladi. Bunda: *Men bu kitobni kutubxonadan oldim* (turlovchilar: -*ni*, -*dan*, -*dim*), *Ahmadning akasi institutda o`qiydi*

¹ Mirzaqulov T. Grammatika o`qitishning lingvistik asoslari. – T.: O`qituvchi. 1994. 25-bet.

² Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. – T.: O`qituvchi. 1972. 81-bet.

(turlovchilar: *-ning, -si, -da, -di*), *Karim dalaga ketdi* (*-ga, -di*) gaplaridagi soʻzlarning oʻzaro bogʻlanishiga xizmat qiluvchi suffikslarning oʻrniga ahamiyat berilgan. Lekin feʼllardagi zamon qoʻshimchalari (*-di: ketdi* - oʻtgan zamon) turlovchilar qatoriga kiritiladi. Bu esa mazkur mavzuga tegishli masalalarning atroflicha oʻrganilmaganligi bilan izohlanadi. Shunga qaramay, bu tasnif qoʻshimchalarning boʻlinishi maʼlum bir izchillikka tusha boshlaganligidan dalolat beradi. 1943-yilda prof. A.Gʻ.Gʻulomov turlovchilarni farqlash uchun “tuslanish” atamasini taklif qildi. Bungacha esa tuslanish va turlanish umumiy bir nom ostida “**turlanish**” deb nomlanar edi¹.

70-yillarga qadar maktab darsliklarida shakl yasovchi va soʻz oʻzgartiruvchi qoʻshimchalar farqlanmay, barchasi **soʻz formasi** deb atalgan edi. Yaʼni soʻz oʻzgarishi va shakl yasalishi kabi soʻzning grammatik shakllarini ikki guruhga ajratishga hech qanday asos yoʻq ekanligi taʼkidlab kelinadi². Lekin oliy oʻquv yurtlarida va qator ilmiy tadqiqotlarda shakl yasash va soʻz oʻzgartirishni farqlash 50-yillardayoq boshlangan boʻlib, 1965-yil nashr etilgan U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullayevlarning “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” qoʻllanmasida zikr etilayotgan grammatik shakllarga quyidagicha taʼrif beriladi: “... affikslar maʼno va vazifalariga qarab uch xil boʻladi: soʻz yasovchilar, forma yasovchilar va soʻz oʻzgartiruvchilar”³. Shuningdek, ushbu qoʻllanmada forma yasovchilarga quyidagicha izoh beriladi: “Soʻzning leksik maʼnosini oʻzgartirmay, unga har xil semantik-grammatik ottenkalar, qoʻshimcha maʼnolar kiritadigan affiks forma yasovchi affiks deyiladi. Forma yasovchilar yangi soʻz yasamaydi, shu bilan birga soʻzlarning oʻzaro munosabatini koʻrsatish uchun xizmat qilmaydi”. Soʻz oʻzgartirish esa: “Grammatik maʼno ifodalab, oʻzi qoʻshilib kelgan soʻzning boshqa soʻzlar bilan munosabatini bildiradigan affiks soʻz oʻzgartiruvchi affiks deyiladi. Soʻz oʻzgartiruvchi affikslar turlovchi va tuslovchilarga boʻlinadi”,- deb koʻrsatiladi. Shundan soʻng oʻzbek tilshunosligida va shu davrda olib borilgan qator ishlarda forma yasovchi va soʻz oʻzgartiruvchi qoʻshimchalari kabi

¹ Mirzaqulov T. Grammatika oʻqitishning lingvistik asoslari. – T.: Oʻqituvchi. 1994.28-bet.

² Nurmonov A. Oʻzbek tilshunosligi tarixi. –T.: Oʻzbekiston. 2002. 203-bet.

³ Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” - T.: Oʻqituvchi. 1965. 5-bet.

tushunchalar va ularga doir grammatik ta'riflar keng qo'llanila boshlandi. 70-yillardan keyin "maktabni fan bilan bog'lash", "fan yangiliklarini maktabga kiritish" shiori ostida ona tili ta'limiga dastlab so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar kiritilib, ular turlovchi va tuslovchilar bilan chegaralandi. Forma yasovchilar esa sharhlanmadi.

O'zbek tilshunosligida ikki qismlik "O'zbek tili grammatikasi"ning 1975-yilda nashr etilishi o'zbek tili morfologiyasini tadqiq etishdagi eng katta yutuq bo'ldi. Ushbu akademgrammatika o'zbek tilshunosligining morfologiya sohasida qilingan jiddiy tadqiqotlardagi barcha yangi qarashlarni o'zida mujassam etadi. Unda "So'z yasalishi" alohida qayd etilib, qo'shimcha, o'zak va uning tarkibi hamda morfemikaga oid barcha qarashlar o'z ifodasini topdi. O'zbek tilshunosligiga doir ushbu qimmatli manbada shakl hosil qiluvchi va so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar quyidagicha umumlashtiriladi: "Forma yasovchi affikslar yangi so'z hosil qilmaydi, ma'noni keskin ravishda boshqa qilib yubormaydi, balki har xil ottenkalar orttiradi, modifikatsiya qiladi. Yasovchilar leksik ma'no bilan bog'lansa, ular grammatik ma'noga ega bo'ladi. Bular kichraytirish, erkalash, chegaralash, kamlik, oshirish, ko'paytirish, gumon, taxmin, emotsionallik kabilarni bildirish – asosiy ma'noga shularni qo'shish bilan xarakterlanadi. Bular orttirgan qo'shimcha ma'no yasovchi darajasidagi ayrim ma'no emas. Anglashiladiki, forma yasovchilar, so'z o'zgartiruvchilardan ham farqlanadi: **leksik ma'noga qo'shimcha ottenka berish, sintaktik xarakterga ega emaslik, paradigma hosil qilmaslik** va boshqalar. Forma yasovchi affikslar: ot turkumida (keng ma'noda); kichraytirish, erkalash, achinish, kamaytirish, taxmin, gumon kabi ma'nolar bildiradigan affikslar (*qizcha, bo'taloq, qo'zichoq, onajon, bolagina, semizroq, oqish, qoramtir, qisqacha va b.*); otlardagi (olmoshda ham) ko'plik ko'rsatkichi (*bolalarni, nimalarni*), sonlarning turli ko'rinishlarini hosil qiladigan affikslar (*-ta, -inchi, -ala, -cha, -tacha*); gumon olmoshi hosil qiluvchi *-dir* (*kimdir, nimadir*) affiksi, fe'l turkumida; bo'lishsizlik ko'rsatkichi *-ma*, fe'lning "kengaytiruvchi" – intensivlik bildiruvchi, kuchaytiruvchi, vid-tus, harakatning takrorlanishi, uzoq davom etishi va kuchsizlanishini bildiradigan

affikslari (-qi, -qa, -gi, -g'i, -la, -inqira, -i, -a kabilar; bur-bura, chay-chayqa, to`z-to`zg'i, qo`zi-qo`zg'a, yul-yulqi, tep-tepkila, oqardi-oqarinqiradi, kuldi-kulimsiradi va boshqalar. Qiyoslang; terladi-terchiladi, terdi-termachaladi); buyruq-istak maylining "kuchaytiruvchilari" (-gil, -in; borgil, bilayin), zamon, mayl ko`rsatkichlari; fe'l funksional formasini hosil qiluvchi affikslar (sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi) daraja ko`rsatkichlari, taqlid so`zlarning kengaygan formasini hosil qiladigan -ir kabi affikslar ham forma yasovchiga kiradi: taq-tuq, taqir-tuqir).

So`z o`zgartiruvchi affikslar so`zlarni bir-biriga bog`lash uchun xizmat qiladi. Ular egalik, kelishik, fe'llardagi shaxs va son ko`rsatkichlaridir.

So`z o`zgartiruvchilarning ma'nosi sof grammatik xarakterdadir. Forma yasovchilar bilan so`z o`zgartiruvchilarning ikkalasi ham faqat bir turkum doirasida bo`ladi"¹.

Shu bilan o`zbek tilshunosligida forma yasash va so`z o`zgartirish qat'iy ajratildi va shunday izchillikda o`rgatib borildi.

O`zbek tili me'yorlarini belgilash va ommalashtirishni o`z oldiga maqsad qilib qo`ygan rus tili darsligi namunasi asosida tuzilgan qo`llanmalar 90-yillargacha amalda bo`ldi. Bu hol ta'lim tizimining turg'unlikka yuz tutishiga va ijtimoiy tarraqqiyot hamda ijtimoiy ehtiyojdan uzilib qolishiga olib keldi. Shuning uchun istiqlol davri boshlaridayoq ona tilining ta'lim mazmunini yangilash, o`zbek tili grammatik qurilishini rus tili grammatik me'yorlari chizmasi asosida baholash asoratidan qutqarish harakati boshlandi. Chunki shakl yasash va so`z o`zgartirish o`zbek tili tabiatidan kelib chiqqan hodisa emas. Har ikki tushuncha ham tabiatan flektiv bo`lgan rus tili me'yorlari asosida ishlab chiqilgan. Shu bois umumiy o`rta ta'limda ona tilidan ta'lim mazmuni va usulini yangilash bo'yicha izlanishlar boshlanib, respublikamizda ona tilidan o`quv fani maqsad va mazmunini yangilashga qaratilgan dasturlarga tanlov e'lon qilindi. Mavjud imkoniyatlar doirasida o`ndan ortiq o`quv dasturlari ishlab chiqildi va jamoatchilik e'tiboriga havola etildi.

¹ Abdurahmonov G'.A va boshq. O`zbek tili grammatikasi. 1-tom. Morfologiya. T.: Fan. 1972. 83-bet.

Umuman olganda, yuqorida ko`rib o`tganimiz, qadimgi dunyoning barcha tilshunoslik maktablarida yaratilgan ja`miki ilmiy izlanishlar keyinchalik shakllangan Yevropa lingvistikasi tamal toshining qo`yilishiga asos bo`lgan. Shuningdek, yangi o`zbek tilshunosligining shakllanishi hamda taraqqiy etishida olis Sharq va G`arb tilshunosligining ham ahamiyati katta bo`ldi. Shu bilan birga istiqlol davri o`zbek tilshunosligida ham mazkur maktab vakillari yondashgan ilmiy qarashlardan qimmatli manba sifatida hozirgacha ham foydalanib kelinmoqda.

Shuningdek, mustaqillik sharofati bilan ta`lim mazmuni va usulini yangilash, o`zbek tili grammatik qurilishi talqinini rus grammatikasi asoratidan xoli qilish umumxalq va davlat ahamiyatiga molik ishga aylandi. Ayniqsa, 1997-yili O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to`qqizinchi sessiyasida “Ta`lim to`g`risida” gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilinishi ona tili ta`limida ham tez orada o`z samarasini berdi. Uzluksiz ta`limning yangi tizimi bo`yicha qator ishlar amalga oshirildi. O`zbek tilshunosligi ham o`zining milliy tabiatidan kelib chiqqan holda tadqiq qilinib, qator yutuqlarni qo`lga kiritdi. Birgina morfologik shakllarning lug`aviy, sintaktik va lug`aviy-sintaktik shakllar kabi turlarga ajratilib o`rganilayotgani yangilanayotgan ona tilimiz muvaffaqiyatlaridan biri hisoblanadi.

2-§. Grammatik shakllarning milliy talqini va unda lug'aviy-sintaktik shakllarning o`rni

Istiqlol sharofati bilan hamma fan, hamma soha bo'yicha jiddiy ilmiy tadqiqot ishlari olib borishga keng yo'l ochildi. O'zbek tilshunosligini Yevropa, ayniqsa, rus tilshunosligi andozasi ta'siridan holi tarzda tadqiq etish imkoni yaratildi. Endi o'zbek tilshunosligi mustaqil tarzda, asosan, o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan holda milliy til hodisasini baholash imkoniga ega bo'ldi. Ilmiy izlanishlar ko'lami kengaydi.

1999-yil qabul qilingan DTS talablari va ta'limdagi qator o'zgarishlar natijasi o'laroq o'zbek tilining mumtoz talqini namunasi asosida o'zbek milliy tilshunosligini yaratish yuzasidan bir qancha muhim ilmiy-tadqiqotlar amalga oshirildi, yangicha nazariy qarashlar asosida darsliklar, o'quv qo'llanmalari yuzaga keldi. Bu, avvalo, istiqlol tufayli, qolversa, Prezidentimiz I.A.Karimovning qo'llab-quvvatlashi bilan o'zbek tilining mumtoz tavsifini berish, o'zbek tilshunosligini yaratish imkoni vujudga kelganligi bilan belgilanadi. Berilgan imkoniyatlar natijasi o'laroq morfologik ko'rsatkichlarning asl tasnifi taqdim etildi. Yangilangan ona tili darsligida tilshunoslarimiz o'zbek tilining turkona agglutinativ tabiati va shakl yasash xususiyatlariga tayangan holda so'z qo'shimchalarining yangi tasnifini yaratdilar. O'zbek tilshunosligi tadqiq doirasiga **lug'aviy shakl hosil qiluvchilar** va **aloqa-munosabat shakli hosil qiluvchilar** deb nomlangan yangi atama va tushunchalar kirib keldi. Yangi nom ostida qo'shimchalarning bunday tasniflanishining asosi A.Bondarko, N.Y.Shvedova, H.Ne'matov, A.M.Peshkovskiy, N.Mahmudov, A.Nurmonov, Sh.Shahobiddinova, Z.Qodirov kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topdi.

Keyingi yillarda nashr etilayotgan o'rta maktab darslikliklarida asos va uning qo'shimchalari quyidagi turlarga ajratiladi va shunday izohlanadi: "**Asos** va **qo'shimchalar** so'zning ma'noli qismlaridir. So'zlarning shakl yasovchi qo'shimchalarisiz, tub ma'noli qismiga *asos* deyiladi. Mustaqil qo'llana

olmaydigan, asosga qo`shilib unga yangi yoki qo`shimcha ma`no yuklaydigan, shuningdek, so`zlarni bog`lashga xizmat qiladigan qismga **qo`shimcha** deyiladi”. “Asosga qo`shilib, yangi ma`no hosil qiluvchi qo`shimchalar **so`z yasovchi** qo`shimchalardir”. “Asosga qo`shilib, uning ma`nosiga qo`shimcha ma`no yuklash yoki o`zi qo`shilayotgan so`zni boshqa so`zga bog`lash vazifasini bajaruvchi qo`shimchalarga shakl yasovchi qo`shimchalar deb ataladi. Ular vazifasiga ko`ra ikki turli bo`ladi:

1. Lug`aviy shakl yasovchilar;

2. Sintaktik shakl yasovchilar (aloqa munosabat shakllari)”¹.

“Asosga qo`shilib, uning ma`nosiga qo`shimcha ma`no yuklovchi qo`shimchalar **lug`aviy shakl** yasovchilardir. Ularga otlardagi ko`plik, kichraytirish-erkalash, qiyoslash ma`nolarini beruvchi shakllar, sifatlardagi daraja, shuningdek, fe`ldagi nisbat, bo`lishli-bo`lishsizlik hamda fe`lning vazifa shakllari (ushbu shakllarga keyingi qismlarda chuqurroq to`xtalamiz) kiritiladi”. “O`zi qo`shilayotgan so`zni boshqasiga bog`lash vazifasini bajaruvchi qo`shimchalar **sintaktik shakl** yasovchilar (aloqa-munosabat shakllari) deyiladi. Mazkur qo`shimchalarga egalik, kelishik, bog`lamalar, fe`llardagi mayl, zamon hamda shaxs-son shakllari kiritiladi”². Keyingi yillarda boshqa mualliflar tomonidan yaratilgan maktab darsliklarida ham ushbu ta`riflar takrorlanadi.

Uzluksiz ta`limning keyingi uch yillik, akademik litsey va kollejlarda tizimida ham o`quvchilarga shu tarzda qoidalar biroz o`zgartirilgan holda beriladi. Unga ko`ra asos **yetakchi morfema** va qo`shimcha **ko`makchi morfema** nomlari ostida keltiriladi. Shakl yasovchi morfemalarning sintaktik imkoniyatlari hisobga olingan holda quyidagi turlarga bo`linadi:

- 1) sintaktik munosabat bildirmaydigan morfemalar (lug`aviy shakl yasovchi qo`shimchalar);
- 2) sintaktik munosabat bildiradigan morfemalar (aloqa-munosabat shakllari)³.

¹ Ne`matov H., G`ulomov A va boshq. Ona tili 6-sinf uchun darslik. T.: O`qituvchi. 2000.190-bet.

² Ne`matov H. G`ulomov A va boshq. Ona tili 6-sinf uchun darslik. T.: O`qituvchi. 2000.192-bet.

³ Nurmonov A., Sobirov A. va boshq. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning 3-bosqich talabalari uchun darslik T.: Ilm ziyo. 2010.120-bet.

Lekin ushbu mavzu yuzasidan ilmiy izlanishlar tilshunos olimlar tomonidan turlicha, soʻz shakllarining hamma imkoniyatlari hisobga olingan holda istiqloqlarning dastlabki yillaridanoq olib borilgan va hali ham davom etmoqda. Shuningdek, qilinayotgan keyingi ishlarda soʻz shakllari yangicha tasnif asosida taqdim etilmoqda. Morfologik shakl boʻyicha zamonaviy oʻzbek tilshunosligida amalga oshirilgan muhim tadqiqot sifatida B.Mengliyev, Sh.Shahobiddinova va B.Bahriddinovalarning ilmiy izlanishlarini alohida taʼkidlash lozim. Sh.Shahobiddinova son kategoriyasi shakli misolida grammatik shaklning xususiy grammatik maʼnosini bosqichli mavhumlashtirish asosida umumiy grammatik maʼnosini tiklash usulini taqdim etdi. B.Mengliyev esa morfologik shaklning maʼnoviy jihati bilan birga sintaktik imkoniyatga ega ekanligini ilmiy asosladi. Olim ishlarini davom ettirgan B.Bahriddinova grammatik shaklning barchasi semantik tabiat va sintaktik imkoniyatga egaligi, uning ayrimlarida lugʻaviy maʼnoni modifikatsiyalash, ayrimida gap qurilishida ishtirok etish xususiyati mohiyatni belgilash darajasida boʻlishini va baʼzilarida har ikki jihat mushtarakligini ilgari surdi hamda oʻz fikrini sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi misolida isbotlab berdi¹. Shunga koʻra, oʻzbek tilshunosligida ilk marotaba morfologik shakl yangicha tasnif asosida ilmiy tadqiq qilindi. Mazkur yangilikda lugʻaviy shakl hosil qiluvchilar sirasiga otdagi son, feʼldagi nisbat, boʻlishli-boʻlishsizlik, harakat tarzi, sifatdagi daraja kategoriyalarini; sintaktik shakl hosil qiluvchilarga kelishik, egalik, kesimlik kategoriyasini hamda “lugʻaviy-sintaktik shakl hosil qiluvchi”ga oʻzgalovchi kategoriyasini kiritdi. Ushbu tasnifni muallifning oʻzi quyidagi taʼrif ostida tushuntiradi:

“1. Lugʻaviy shakl hosil qiluvchi – leksemaning lugʻaviy maʼnosini nutq talabiga muvofiq ravishda modifikatsiyalaydi.

2. Sintaktik shakl – leksemani muayyan gap boʻlib kelishiga xoslaydi va sintaktik aloqaga kiritish vazifasini bajaradi.

¹ Bahriddinova B. Hozirgi zamon oʻzbek tili(Qoʻshimchalar tasnifi yuzasidan materiallar). Qarshi:Nasaf. 2004.

3. Lug'aviy-sintaktik shakl leksemaning ham lug'aviy ma'nosiga ta'sir qiladi, ham uning sintaktik vazifasini belgilaydi"¹.

Turkiy tillarda ilk marotaba murakkab tabiatli ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi shakllari tadqiqi bilan shug'ullangan M.Qoshg'ariy ham ular tabiatidagi bu nozik jihtni e'tibordan chetda qoldirmaydi. «Devon»ning katta qismi (II tom) fe'l qoidalari, yasalishi, fe'l boblari, turlari va boshqalarga bag'ishlanadi. M.Qoshg'ariyning ta'kidlashicha, turkiy tillar fe'l qurilishi arab tilidagi fe'llar tuzilishiga o'xshaydi. har ikki tilda ham masdar(harakat nomi), sifat(ismi foil, ismi maf'ul - sifatdosh)larning qo'llanilishi bir xil. «Fe'llarning tuslanishi va sifatlarning bayoni» bobida fe'llarning yasalishi xususida to'xtalib shunday fikrlar keltiriladi: «...fe'llarning yasalishida o'tgan zamon fe'li va buyruq formasi asosdir, dedim. Chunki o'tgan zamon fe'lining bosh harfi maftuh(-a li) bo'lsa, kelasi zamon fe'li ham, masdar ham maftuh(-a li) bo'ladi. Uning bosh harfi marfu'(-lo li) bo'lsa, o'tgan zamon fe'li ham, masdar ham shunday bo'ladi: bardi – barir, turar – turmaq [DLT.,II.39-40].

«Devon»da ish-harakatning bajarilganligini bildiruvchi sifatida ismi maf'ul termini qo'llanilib, harakat nomi deb izohlab ketiladi: «...ish-harakatning bajarilganligini bildiruvchi ismi maf'ul formasi hamma fe'l boblarida bir xil usulda – buyruq shakli oxiriga -sh,-m qo'shib yasaladi: qazmish ariq - qazilgan ariq. O'zak bu xil sifatlarda har vaqt o'z holda hech qanday o'zgarishsiz saqlanadi. O'zakka o'timli fe'llarda - mish qo'shimchasi qo'shiladi. O'tgan zamon o'timsiz fe'llarda ham – mish qo'shimchasi qo'shiladi, u holda bu– mish o'tgan zamon gumon fe'lini yasaydi: evga barmish – uyga borgan emish[DLT.,II.62-63].

Mahmud Qoshg'ariy sifatdosh shakllarini ish-harakatning bajarilishini bildiruvchi sifat deb ataydi va buni quyidagicha izohlaydi:»...barmish, kelmish so'zlari otlar oldida aniqlovchi bo'lib kelganda sifatga aylanadi: barmish kishi – boradigan kishi. Buning o'rnida bardi fe'lidagi di ni qo'llashning o'rnini emas[DLT.,II.-64].

¹ Bahridinova B. Fe'l lug'aviy shakllari tizimi(tur kategoriyasi): filol. fan. nom. ...diss.- 3-bet.

Koʻrinib turibdiki, hozirgi kunda unumsiz sifatdosh hosil qiluvchi sanaladigan – mish shakli «Devon»da masdar(harakat nomi), sifat(sifatdosh) va oʻtgan zamon gumon feʼli yasaganligi misollar bilan tushuntirilgan. «...ishlovchini bildiruvchi sifatlar(ismi foillar) oʻgʻiz, qipchoq, yamak, yagʻmo, argʻular va suvorlardan Tachanakkacha boʻlgan koʻchmanchilar tilida oʻtgan zamon feʼlidan tuziladi: bardi – bardachi. Butun feʼllarda bu qoida shu xildadir[DLT.,II.-41].

Pedagogik amaliyotlarda olib borilgan kuzatuvlardan shu narsa maʼlum boʻldiki, qoʻshimchalarni farqlash va toʻgʻri tasnif qilgan holda yodda saqlab qolish 6-sinf oʻrta maktab oʻquvchisida biroz qiyinchiliklar tugʻdirar ekan. Shuningdek, ularni gap tarkibida tahlil qilish jarayonida oʻquvchilar chalkashliklarga yoʻl qoʻyishadi. Aksariyat oʻquvchilargina sintaktik shakllarni farqlaydilar (shunda ham yodlash yoʻli bilan, tushungan holda emas). Bunday hollarda, tushuntirish jarayonida oʻqituvchilar ham qiyinchiliklarga duch kelishadi. Tahlil vaqtida qoʻshimchalarni guruhlashda ustozning oʻzi ham biroz qiynaladi. Dars jarayonida bu kabi muammolarga duch kelmaslik uchun esa darslik mualliflaridan toʻgʻri tasnif qilgan holda qoʻshimchalarni vazifasiga koʻra guruhlash talab etiladi.

Grammatik shakllar haqidagi nazariy qarashlar B.Bahriddinova tomonidan bir qator ilmiy maqolalarda ham yoritildi. Ayniqsa, oʻrta maktabda qoʻshimchalarning oʻqitilishi va pedagog-kadrlar tomonidan oʻquvchilarga qay tarzda yetkazib berishlari xususidagi olimaning taklif va mulohazalari uning keyingi ishlarida ham namoyon boʻladi:

“Qoʻshimcha tushunchasi nihoyatda serqirra mazmunga ega boʻlib, uning har bir qirradi alohida tasnifni talab etadi. Tuzilishiga koʻra – sodda va murakkab; kelib chiqishiga koʻra – oʻz va oʻzlashma; shakl va maʼno munosabatiga koʻra – shakldosh, maʼnodosh, zid maʼnoli, talaffuzdosh, shuningdek, bir maʼnoli va koʻp maʼnoli, soʻz yasash darajasiga koʻra – serunum, kamunum, unumsiz va boshqa guruhlarga ajratiladi. Ammo qoʻshimchalarni vazifasiga koʻra guruhlash tasniflar

ichida eng muhimidir”¹. “Lug’aviy-sintaktik shakllarni alohida ajratmaslik o`quvchilarda qo`shimchalarning vazifasini aniqlashda (ham bog`lash, ham qo`shimcha ma`no yuklash), so`z birikmalarini ajratishda (*o`qigan bola bitishuvmi, boshqaruvmi?*), gap bo`laklarini tahlil qilishda (lug’aviy shakllarning birortasi ham so`zning gapdagi sintaktik vazifasini o`zgartirmaydi) kabi tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi”².

Grammatik shakllar xususidagi qarashlar o`z ilmiy isbotini topgach, keng jamoatchilik e`tiboriga havola etildi. Keltirilgan ta`rif va tavsiflar o`quv darsliklaridan ham joy ola boshladi. Xususan, oliy o`quv yurtlari talabalari uchun nazariy manba sifatida taqdim etilgan “Hozirgi o`zbek adabiy tili” (R.Sayfullayeva, B.Mengliyev va b) darsligida so`z shakllariga quyidagicha ta`rif beriladi:

“O`zbek tilida, flektiv tillardagidan farqli o`laroq, o`zak mustaqil ma`no anglatish xususiyatiga ega. So`zning o`zaktan boshqa qismlari esa undan ayricha qo`llanilmaydi va ma`no anglatmaydi. Shuning uchun ular *morfema* deyiladi”. “Morfema funksional-semantik xususiyatiga ko`ra ikki guruhga bo`linadi:

- 1) derivatsion morfema;
- 2) grammatik morfema.

Derivatsion morfema so`zga qo`shilib, yangi so`z hosil qiladi”.

“Grammatik morfema asosiy xususiyatiga ko`ra uchga ajraladi:

- 1) lug’aviy shakl hosil qiluvchi morfema;
- 2) sintaktik shakl hosil qiluvchi morfema;
- 3) lug’aviy-sintaktik shakl hosil qiluvchi morfema³.

Lug’aviy shakl hosil qiluvchi morfema leksema lug’aviy ma`nosini nutqqa moslashtirish vazifasini bajaradi. Masalan, *kitob* leksemasining sememasida birlik va ko`plik ma`nosi noma`lum. Son lug’aviy shakl hosil qiluvchisi bo`lgan *-lar* uni ko`plik tomon muayyanlashtiradi. Bu morfemaning o`ziga xos turi *lug’aviy-*

¹ Bahriddinova B. Maktabda so`z tarkibi bilan bog`liq mavzularni o`qitishga doir. Til va adabiyot ta`limi.T.: 2009. 7-son 80-bet.

² Bahriddinova B. Maktabda so`z tarkibi bilan bog`liq mavzularni o`qitishga doir. Til va adabiyot ta`limi.T.: 2009. 7-son 83-bet.

³ Sayfullayeva R., Mengliyev B va boshq. Hozirgi o`zbek adabiy tili. T.: Fan va texnologiya.2009.141-bet.

sintaktik shakl hosil qiluvchi morfema bo`lib, lug`aviy ma`noni muayyanlashtirish, nutqqa xoslash bilan birga (kelgan), (o`qigach), so`zni sintaktik aloqaga ham kiritadi: o`qigan bola, o`qigach gapirmoq.

Sintaktik shakl hosil qiluvchi morfema so`zning sintaktik qurilmadagi o`rnini belgilaydi. Masalan, kelishik kategoriyasi so`zga kesimlik mavqeyini beradi. Kesimning ega va hol bilan sintaktik aloqasini ta`minlaydi. Kelishik morfemalari oldingi so`zni keyingi, egalik qo`shimchalari esa keyingi mustaqil so`zni oldingisiga bog`lash vazifasini bajaradi”¹.

Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelishimiz mumkin, o`zbek tilidagi qo`shimchalar murakkab tabiatga ega. Bu, ayniqsa, fe`lning o`zgalovchi kategoriyasida yaqqol namoyon bo`ladi. Chunki fe`lning nisbat, bo`lishli-bo`lishsizlik, harakat tarzi va lug`aviy shakllik mohiyatiga ega bo`lgan tur kabi to`rt lug`aviy shakli mavjud. Bu lug`aviy shakllarning har biri o`ziga xos xususiyatlarga va paradigmaga birlashuvchi necha ko`rinishlarga ega, shuningdek, ularning nutqdagi voqelanishi turli xil. Shunga qaramay ular nutqda yuzaga chiqadi va fe`l tarkibida qoladi. Shakl yasovchi, lug`aviy shakl deb yuritib kelingan o`zgalovchi kategoriya shakli – ravishdosh, sifatdosh va harakat nomining o`ziga xos murakkab xususiyati na lug`aviy shaklga, na sintaktik shaklga berilgan ta`riflarga mos keladi. Chunki mazkur shakl so`z lug`aviy ma`nosini muayyanlashtirish bilan birga, fe`lni o`zidan keyin kelgan ot yoki fe`lga tobelantirib bog`lash va shu asosda uning gapdagi mavqeyiga ham kuchli ta`sir etish xususiyatiga ega. Lug`aviy ma`noni muayyanlashtirishi, aniqlashtirishi va faqat fe`lga xosligi ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi shaklini sintaktik shakl sifatida baholashga, fe`lni o`zidan keyingi so`zga tobelab bog`lashi hamda gapdagi vazifasini belgilashi ularni lug`aviy shakl sifatida baholashga to`siq bo`ladi. Shuningdek, o`zgalovchi kategoriyasining “fe`lni boshqa so`zlarga bog`lash va fe`lga otga xos vazifalarini berish” UGMsini “fe`lni fe`lga bog`lash” (ravishdosh), “fe`lni otga bog`lash” (sifatdosh) hamda “fe`lga ot vazifasini berish” (harakat nomi) tarzida xususiylashtirsak, mazkur shakllarning sintaktik imkoniyati

¹ Sayfullayeva R., Mengliyev B va b. Hozirgi o`zbek adabiy tili. T.: Fan va texnologiya.2009.142-bet.

natijasida fe'llik xususiyatidan uzoqlashayotganligiga guvoh bo'lamiz. Demak, o'zgalovchi kategoriya o'zida ham lug'aviy, ham sintaktik shakllik mohiyatini mujassamlashtiradi. Masalan, *yorilgan devor, qizigan asfalt, qiziqib so'ramoq, oqar daryo, o'qigani kelmoq* kabi birikuvlarda sifatdosh shakli fe'lni otga tobelantirib bog'lamoqda va shu bilan birgalikda fe'ldagi harakat ma'nosini kuchsizlantirib, belgi ma'nosi bilan nutqqa olib kirmoqda. Masalan, keltirilgan birikmalar tarkibidagi *-gan* sifatdosh shaklining ma'noviy va vazifaviy xususiyati rang-barang bo'lib, shu boisdan uning talqinida qarama-qarshi nuqtayi nazarni ko'plab uchratish mumkin. O'zbek tilshunosligida bu shakl xususida har-xil fikrlar bildiriladi. Birgina *-gan* ko'rsatkichining sifatdosh shakli sifatidagi umumiy grammatik ma'nosi hamda uning oraliq grammatik ma'no orqali voqelanishiga e'tibor qaratsak, mazkur shaklning boshqa morfologik shakllar qatori ma'noviy va sintaktik xossa birligidan iborat butunlik ekanligiga, uning umumiy grammatik ma'nosi ham shu yaxlitlik asosida tiklanishiga amin bo'lamiz.. Shaklning ma'noviy jihati "fe'lga sifatlik xususiyatini berish" bo'lsa, sintaktik vazifasini "fe'lni ot va ot vazifasidagi so'zga bog'lash" tashkil etadi. Demak, sifatdosh shaklining umumiy grammatik ma'nosini "fe'lga sifatlik xususiyatini berish va fe'lni otga bog'lash" deya aytishimiz mumkin bo'ladi. Sifatdosh shakli umumiy grammatik ma'nosining sintaktik mohiyati deyarli o'zgarishsiz - "fe'lni otga bog'lash" tarzida xususiylashadi, bog'lanuvchi fe'l yoki ot bu vazifani o'ziga xos tarzda o'zgartira olmaydi. Biroq ma'noviy jihat to'g'ridan-to'g'ri emas, balki muayyan oraliq grammatik ma'nosi orqali nutqqa chiqadi, xususiylashda namoyon bo'ladi. *-gan* shaklining fe'lni aniqlovchi sifatida nutqqa olib kirishga asos bo'luvchi sintaktik imkoniyati borligini ham qayd etishimiz mumkin bo'ladi: *Chinor bo'lmasa ham, boshqa biror tup daraxt eksa, yer yuzini shovullagan bog'lar qoplab ketardi.*

Shuningdek, ravishdosh shakli ham fe'lni o'zidan keyingi fe'lga tobelab, harakat ma'nosini kuchsizlantirgan holda holat, payt, sabab ma'nosi bilan nutqda voqelantiryapdi.

Ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi shakli tizimini kuzatish shuni ko'rsatadiki, mazkur shakllardagi lug'aviy va sintaktik imkoniyat birdek mutanosiblikda emas.

Shaklning lug'aviy ma'noga ta'siri kuchayishi bilan unda sintaktik qobiliyat kuchsizlanib boradi. Ravishdosh shaklida fe'lni fe'lga tobelash imkoni kuchli, ammo atash ma'nosiga ta'sir nisbatan kuchsiz. Sifatdoshda esa har ikki jihatning mavjudligiga guvoh bo'lamiz. Harakat nomi shaklida atash ma'nosiga ta'sir anchayin sezilarli, hatto ayrim o`rinlarda unga ot yasalishi sifatida qaraladi, ammo fe'lni boshqa so`z bilan aloqaga kiritish imkoniyati tamoman yo`qolib boradi. Shu vaqtga qadar lug'aviy shakl hosil qiluvchi shakl sifatida talqin etilgan o`zgalovchi kategoriyasi shakli, ta'kidlab o`tilganidek, o`ziga xos murakkab tabiatga ega. Uning serqirra mohiyati lug'aviy shaklga ham, sintaktik shaklga ham berilgan ta'rifni tushunishimizda murakkablik keltirib chiqaradi. Chunki ular har ikki shaklga xos bo`lgan xususiyatni o`zida saqlaydi va aynan shu xususiyati bilan ushbu ikki qarama-qarshi sath orasida umumiylik shakllanayotganini ko`rsatadi.

3-§. Lug'aviy-sintaktik shakllar va so`z birikmalarini ajratish muammolari

Dunyoning barcha tillarida fe'l gap tarkibida u yoki bu bo'lak vazifasida kelishi uchun ma'lum bir shaklni qabul qiladi. Qizig'i shundaki, fe'lni gap tarkibiga olib kiruvchi bunday shakllarning har biri o'zining turli atamalariga ega. Masalan, harakat nomi - rus tilida fe'lning noaniq shakli - «infinitiv», Yevropa tillarida «gerundiy», arabcha «masdar», sifatdosh - ruscha «prichastiye», yevropacha «partitsip», arabcha «ismi foil» yoki «ismi maf'ul», ravishdosh - ruscha «deyeprichastiye», yevropacha «adverbiyum», sof fe'l - ruscha «fe'lning tustlangan shakli», yevropacha «verbum finitum», arabcha «fe'l» kabi atamalar bilan yuritiladi. Lekin bu to'rt turdagi shakllar tizimi (o'zbek tilida) o'zining maxsus atamasiga ega emas.

Rus tilshunosligida bu sira fe'lning funksional formolari degan noaniq atama bilan birlashtiriladi va o'zbek tilshunosligiga ham bu kalka asosida kirib keladi. Atamaning noaniqligi va kategoriyaning nomi bo'la olmasligi haqida ko'pgina tilshunoslar fikr bildirganlar. Ammo bu kategoriya uchun umumiy bir leksemali qulay atamani kamdan-kam tadqiqotchilar taklif etganlar. Jumladan,

I.I.Smirnitskiy bu tizim uchun «kategoriya reprezentatsii» atamasini qoʻllaydi. Turkiyshunoslikda ham bu atama H.Neʼmatov tomonidan maʼqul deb topildi. Oʻzbek tilshunosligida mazkur kategoriya uchun birmuncha munosib nom B.Mengliyev tomonidan taklif etildi. Tadqiqotchi bu sirani «feʼning oʻzgalovchi kategoriyasi» deb nomladi. Ammo bu atamaning ham qulay va noqulay tomonlari bor. Qulayligi shundaki, u bir soʻzdan iborat boʻlib, feʼning boshqa turkum soʻzlariga yaqinlashishiga ishora qiladi. Noqulayligi esa feʼni oʻzgalash, yaʼni feʼni feʼdan uzoqlashtirish maʼnosining anglashilib turishidadir. Harakat nomi, ravishdosh, sifatdosh va tuslangan feʼllar yaxlit bir turkumga birlashadigan feʼning turli shakllari boʻlganligi sababli, masalan, harakat nomi yoki sifatdoshni «feʼldan oʻzgalandi» deb aytib boʻlmaydi. Bu shakllarning barchasi feʼl turkumi doirasida qoladi, yaʼni boshqa turkum soʻzlariga oʻtmaydi - oʻzgalanmaydi. Shu bois oʻzgalovchi atamasini ham qoʻllash fanda unchalik oʻzini oqlamaydi.

Umumiy oʻrta taʼlimning Davlat taʼlim standartida bu hodisaga nisbatan - feʼning vazifa shakllari atamasi qoʻllandi. Vazifa shakllari atamasi feʼning bu boʻlimida tahlil etilayotgan tasniflovchi (yaʼni, bu faqat feʼl turkumiga oid soʻzlarga aloqador), vazifaviy (feʼlga gap tarkibida maʼlum bir mavqe, vazifa bagʻishlovchi) va lugʻaviy shakl hosil qiluvchi (feʼning lugʻaviy maʼnosiga maʼlum darajada taʼsir etuvchi) shakllar sirasiga nisbatan qoʻllanishi feʼning bu shakllar sirasini yaxlit bir kategoriyaga birlashtirish va shu kategoriyaga mansub shakllarni alohida bir paradigmaga tizish imkoniyatini beradi. Mantiq, aniqrogʻi, soʻz va tushuncha orasidagi murakkab mutanosiblikdan maʼlumki, tushuncha soʻz qobigʻida shakllantirilmasa, u yaxlitlik kasb etmaydi.

Feʼning vazifa shakllari harakat nomi, sifatdosh, ravishdoshlar va feʼning kesimlik shakllari kabi aʼzoldan iborat boʻlib, feʼni nutqqa - gap tarkibiga olib kiradi. Feʼl nutqda voqelanish uchun bu kategoriya shakllaridan biriga ega boʻlishi shart va zarur. Kategoriyaning yaxlitligi faqat mana shu leksik-funksional xususiyat bilan belgilanadi. Feʼning vazifa shakllari (tur kategoriyasi ham deb yuritiladi) dan birini qabul qilmasdan turib feʼl kommunikatsiya jarayonida voqelana olmaydi. Lekin paradigma unsurlarining har biri mohiyatan xilma-xil

tabiatga ega. Shuning uchun ularning hammasi o'ziga xos ichki paradigma hosil qiladi. Bu paradigmalar yuqorida ko'rsatilgan leksik-funksional kategorial belgini umumiylik sifatida saqlagan holda alohida-alohida, har bir a'zo uchun tilda zarur deb sanalgan belgilar asosida quriladi. Tur kategoriyasining bir unsuri - fe'l kesimlik shakli - kesimlik kategoriyasi tomonidan qamrab olinganligi sababli, ularning ichki paradigmasi kesimlik kategoriyasi paradigmasi ostida ko'riladi.

Harakat nomi, sifatdash va ravishdoshlarning xilma-xil shakllari tur kategoriyasining alohida ko'rinishi sifatida qaralish-qaralmasligi hozirga qadar fanimizda bahsga sabab bo'lib kelmoqda. Mazkur shakllar tur kategoriyasi uchun kategorial bo'lgan ma'no asosida farqlansa (ya'ni fe'lni fe'lga bog'lash vazifasi - o'timli fe'lni o'timli fe'lga, o'timli fe'lni o'timsiz fe'lga, o'timsiz fe'lni o'timli fe'lga bog'lash, fe'lning bir ma'noviy guruhini ikkinchi turdagi fe'l bilan bog'lash kabilarda hususiylashsa), bunday shakllar tom ma'noda tur kategoriyasining alohida shakllari sifatida baholanishi va tur kategoriyasi shakllari paradigmasiga kiritilishi mumkin.

4-§. Ravishdosh shaklining lug'aviy-sintaktik shakllik tabiati

Tur kategoriyasining tarkibiy qismlaridan bo'lgan ravishdosh shakli bir fe'lni ikkinchi bir fe'lga bog'lash uchun xizmat qiladi. Bu jihati bilan u kelishiklarga o'xshab ketadi. Ravishdoshning sintaktik mohiyatini ravishdosh hosil qiluvchi boshqa shakllar uchun umumiy va mutlaq bo'lgan «oldingi fe'lni keyingi fe'lga tobe a'zo sifatida bog'lash bilan fe'lni nutqqa kiritish» vazifasi, morfologik mohiyatini «fe'lga ravishlik belgisini berish» ma'nolari tashkil etadi.

Ravishdoshlar garchi umumiy, barqaror sintaktik mohiyatga ega bo'lsa-da, o'zaro o'ziga kategoriyalar tajallilari asosida xilma-xil ma'noviy paradigmatic munosabatlarda bo'ladi. Xususan, -gani va -guncha shakllari hokim fe'l ifodalagan harakatdan keyin yuz beruvchi harakatni ifodalaydigan ko'rsatkichlar qatorini hosil qiladi. Shu bilan birga, ular o'ziga xos xususiyatlari asosida teng qiymatli ziddiyat hosil qiladi. Aniqrog'i, -gani shakli o'zida mayl kategoriyasi tajallisi kuchliligi

hamda bajaruvchining yakkaligi bilan bunga salbiy munosabatda bo'lgan va o'zida zamon kategoriyasi tajallisi kuchli darajada mavjud bo'lgan -guncha shakliga qarama-qarshi turadi.

-gach va (-i)b shakllari tobe va hokim fe'llar ifodalagan harakatning bajaruvchisi bilan o'zaro zidlanadi. Tobe uzv -(i)b ko'rsatkichi bilan shakllanganda, har ikkala fe'l subyektlari bitta bo'ladi: Salim xatni o'qib o'ylanib qoldi. Tobe o'zv -gach ko'rsatkichi bilan shakllanganda tobe va hokim fe'llar bajaruvchilari bitta ham(Salim xatni o'qigach, o'ylanib qoldi), boshqa-boshqa ham(Salim xatni o'qigach, halim o'ylanib qoldi) bo'lishi mumkin. Ko'rinadiki, Salim xatni o'qib, o'ylanib qoldi gapida o'qimoq va o'ylanmoq fe'llarining bajaruvchilari boshqa-boshqa bo'lishi mumkin emas. -gach shaklida bunga to'siq bo'lish imkoniyati yo'q.

Bunday ziddiyatli nuqtalarni har bir shakl misolida ko'plab keltirish mumkin. Ortiqcha tafsilotlardan tiyilib, ravishdosh shakllari paradigmatic munosabatlarini yaxlitlik nuqtai nazaridan xulosalashga harakat qilamiz.

«Fe'lni fe'lga bog'lash» umumiy grammatik ma'nosi ostida birlashgan shakllar dastavval «boshqaruvchi fe'l ifodalagan harakat paytiga munosabat» belgisi ostida privativ ziddiyat hosil qiladi. -a / y, -(i)b, -may / masdan, -gancha, -gali shakllarida paytga munosabat belgilanmagan bo'lib, u imkoniyat sifatidagina mavjud bo'ladi:

Ko'rinadiki, ravishdosh shakllari bir umumiy belgi (kuchli sintaktik imkoniyat - "fe'lni fe'lga bog'lash" belgisi) asosida birlashib, ravishdoshning zotiy mohiyatiga daxldor bo'lmagan belgilar asosida turli xil ziddiyatli munosabatlarda bo'ladi. Shu bois zotiy mohiyatning parchalanishi asosida emas, balki zotga daxldor bo'lmagan xossalar asosida farqlanishi ravishdosh shakllarini yaxlit morfologik paradigmaga - kategoriyalarga birlashtirish uchun mone'lik qiladi va barcha shakllarni bitta ravishdoshning qorishiq ma'nolar bilan murakkablashgan turli ko'rinishlari sifatida qarashga asos bo'ladi.

5-§. Sifatdosh shaklining lug‘aviy-sintaktik shakllik tabiati

Sifatdoshlar nokesimlik shakllari bo‘lib, fe’lni nutqqa voqelantirar ekan, uni o‘zidan keyingi ot(ba‘zan fe’l)ga bog‘lashdek sintaktik va o‘zi shakllantirayotgan fe’lga sifatlik belgisini berishdan iborat morfologik ma’nolarni namoyon qiladi.

Sifatdosh ko‘rsatkichlarining lug‘aviy-sintaktik shakllik tabiati ularning umumiy sintaktik mohiyati - fe’lni ot(yoki fe’l)ga tobe uzv sifatida bog‘lash va shu bilan bog‘liq holda kelib chiqqan ma’noviy xususiyat - fe’l anglatgan harakat va harakat natijasini narsa-predmetning belgisi sifatida nutqda voqelantirishdan iboratdir.

Sifatdosh shakllarining so‘z lug‘aviy ma’nosiga ta’siri nutqiy hodisa bo‘lib, istalgan fe’l nutq tarkibida kirgandagina sifatdoshlik xususiyatini namoyon qiladi. Shaklning lug‘aviy ma’noga ta’siri leksema semasiga ta’sir qilish degan gap emas. Masalan, o‘qigan bola birikmasidagi “o‘qimoq” so‘zi ma’nosida orttirilgan “belgi” ottenkasi [o‘qi] leksemasining lisoniy mohiyatini o‘zgartirmaydi.

Lug‘aviy ma’noga ta’sir tur kategoriyasining barcha shakllarida birdek emas. Ravishdoshlar o‘zgalanish jarayonida fe’lning lug‘aviy ma’nosini kuchli o‘zgartirmay, unga, asosan, tobelovchi sintaktik vazifa yuklasa, sifatdoshlar fe’ldagi dinamik belgini barqarorlashtirib, uning lug‘aviy ma’nosini qisman bo‘lsa-da, o‘zgartiradi. Shuning uchun ayrim nazariyotchilar sifatdoshlarni alohida so‘z turkumi sifatida qaraydilar.

Ko‘rib o‘tilganidek, sifatdoshlar o‘z mikrotizimi ichida sifatlik belgisini barqarorlashtirish va fe’lni otga (qisman fe’lga) tobe uzv sifatida bog‘lash belgilarini muayyanlashtirish jihatidan emas, balki zamon, harakat tarzi kategoriyalari uchun kategorial, sifatdoshlar uchun nokategorial bo‘lgan ma’nolarni ifodalash jihatidan farqlanadi. Sanab o‘tilgan -gan, -yotgan, -adigan / ydigan shakllari turli xil sifatdoshlar emas, balki tur kategoriyaning bitta shakli sifatida namoyon bo‘ladigan sifatdoshning zamon, harakat tarzi kabi boshqa

kategoriyalarga xos ma'nolar bilan farqlanuvchi ko'rinishlaridir. Shu sababli sifatdoshlarni alohida grammatik kategoriya - paradigma sifatida baholashga asos yo'q.

5-§. Harakat nomi shaklining lug'aviy-sintaktik shakllik tabiati

Fe'l leksemalar nutqiy aloqada rasmiylashar ekan, yuqorida aytilganidek, tur kategoriyasi shakllaridan birini qabul qilishi shart. Fe'lni nutqqa olib kiruvchi shakllar orasida harakat nomlari alohida o'rin tutadi. Ko'rib o'tilgan sifatdosh va ravishdosh shakllari kommunikatsiya jarayonida fe'lni fe'likdan "uzoqlashtirib", unga tobe uzvlik maqomini bergan holda o'zidan keyingi so'zga bog'lash vazifasini yuklasa, harakat nomi shakllari esa fe'llikni kuchsizlantirish uchungina xizmat qiladi. Ammo shuni aytib o'tish kerakki, bu shakl vositasida nutqda reallashgan fe'l o'z fe'llik belgilarini sifatdosh va ravishdoshga qaraganda ko'proq xiralashtiradi, ya'ni harakat/holat belgisi kuchsizlanib, predmetlashish - gapda otga xos belgilar bilan sintagmatik munosabat hosil qilish kuzatiladi. harakat nomi shakllariga nisbatan qat'iy "predmetlashish" terminini qo'llamaymiz, albatta. Chunki, mazkur so'zshakllar fe'llik belgilarini(nisbat - o'qitish, izlanish, qisman bo'lishsizlik - istamaslik, chekmaslik) ham o'zida saqlab qoladi.

Xulosa

Keyingi yillarda o`zbek tilshunosligida morfologik shakllarni uch guruh: lug`aviy, sintaktik va lug`aviy-sintaktik shakllar sifatida ajratilishi bitishuv va boshqaruv mohiyatini o`zida saqlagan “*Oraliq uchinchi*” qonuniyati so`z birikmasi orasida mavjud degan xulosaga olib keladi.

Ma`lumki, boshqaruvda tobe so`z hokim so`z talabi bilan o`z shaklini o`zgartiradi: tobe so`z hokim so`zga qarab ma`lum shaklga kiradi. Tobe so`z hokim so`zga kelishik qo`shimchalari (tushum, jo`nalish, o`rin-payt va chiqish kelishigi) yoki ko`makchilar yordamida bog`lanadi va kelishikli boshqaruv, ko`makchili boshqaruv deb ataladi. Bu tarzdagi bog`lanish bizga tanish, albatta. Lekin shunisi ham borki, boshqaruv uni amalga oshirayotgan vositaga bog`liq ravishda ravishdoshli boshqaruv, sifatdoshli boshqaruv kabi turlarga tasnif qilinish holatlari ham mavjud. Mazkur xoslovchi shakllar sintaktik mohiyatga ega: sintaktik aloqani, sintaktik vazifani ta`minlashga xizmat qiladi: *o`sgan nihol, chirsillab yonmoq*. Shunday qilib, lug`aviy-sintaktik shakl leksemaning ham lug`aviy ma`nosiga ta`sir etadi, ham uning sintaktik vazifasini belgilaydi.

Xulosa o`rnida shuni aytish joizki, ravishdosh va sifatdosh birikuvli so`z birikmalarini boshqaruvli birikma yoki bitishuvli bog`lanishga kiritish o`zini unchalik oqlamaydi. Ravishdosh va sifatdosh shakllari vositasida yasalgan bitishuvli yoxud boshqaruvli so`z birikmalarida grammatik ko`rsatkich qatnashadi, lekin sintaktik shakl yasovchi emas, balki lug`aviy shakl yasovchi hisoblanadi. Mazkur xoslovchi shakllar sintaktik mohiyatga ega: sintaktik aloqani, sintaktik vazifani ta`minlashga xizmat qiladi. Shunday qilib, lug`aviy-sintaktik shakl leksemaniing ham lug`aviy ma`nosiga ta`sir etadi, ham uning sintaktik vazifasini belgilaydi. Lug`aviy-sintaktik shakl tom ma`noda lug`aviy va sintaktik shakllar sirasida “*Oraliq uchinchi*” maqomiga ega bo`ladi. Shu sababli ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi bir tomondan boshqaruvni eslatsa, boshqa belgisi bilan bitishuvni eslatadi.

Shakllar tabiatidan kelib chiqib sifatdoshli va ravishdoshli birikuvlarni bitishuv va boshqaruv orasidagi “*Oraliq uchinchi*” sifatida talqin qilinishi va so`z

birikmalarining birikish usuliga ko`ra turlarini: 1) moslashuv (*mening oilam*) ; 2) boshqaruv (*kitobni o`qimoq*); 3) bitishuv (*katta ko`cha*); 4) boshqaruvli bitishuv (*o`qib bilmoq, o`qigan bola*) tarzida ajratishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Harakat nomli birikuv (*o`qish zali, kuzatuv punkti, kiyinish xonasi*) yanada murakkab tabiatli bo`lib, uning moslashuv, bitishuv, boshqaruv yoki qo`shma so`zga aloqadorligi masalasi alohida tadbiqu talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. I.A.Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent, "O'zbekiston", 2011., B.-67
2. I.A.Karimov. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» Toshkent.: 2008
3. I.A.Karimov. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni. 1997-yil. 63-bet.
4. Bahriddinova B. Hozirgi zamon o'zbek tili(qo'shimchalar tasnifi yuzasidan materiallar). Monografiya. Qarshi. Nasaf, 2004
5. Bahriddinova B. Maktabda so'z tarkibi bilan bog'liq mavzularni o'qitishga doir. "Til va adabiyot ta'limi" Toshkent. 2009. 7-son, 78-85-betlar.
6. Hojiyev A. Fe'l. Mas.mux. SH.SH.Shoabduraxmonov. T.:Fan, 1973. -192 .
7. Hojiyev A.O'zbek tilida sifatdosh // O'zbek tili va adabiyoti masalalari. 1961. - № 4, B-54-57., 1962. -№ 2, B-53-56.
8. Mahmudov N, Nurmonov A va b. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. Toshkent. Tasvir, 2013.
9. Nazarova S.N. Birikmalarda so'zlarning erkin bog'lanish omillari: Filol. fan. nomz. diss. avtoref .-Toshkent 1997, - 21 b.
- 10.Qoshg'ariy M. Devonu lug'otit turk. Tarjima va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov. I-II t.t. -T.: 1960-1963.
- 11.Rahmatullayev SH. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Toshkent. Universitet, 2006.
- 12.Sayfullayeva R, Mengliyev B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. Fan va texnologiya, 2009.
- 13.Tursunov U, Muxtorov J, Rahmatullayev.SH. Hozirgi o'zbek adabiy tili.Morfologiya. Toshkent. O'qituvchi, 1965.
- 14.O'zbek tili grammatikasi. I tom. Morfologiya. Max.muh. J.A.Abdurahmonov va boshq. T.: Fan, 1972.-610 b.
- 15.Shoabdurahmonov SH., Asqarova M., Hojiyev A. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. I qism. -T.: O'qituvchi, 1980. -447 b.